



ISSN 2181-1709 (P)  
ISSN 2181-1717 (E)

2024/№5

# TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR

# ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

# EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

**TA'LIM VA INNOVATSION TADOIQTOLAR**  
**ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**  
**EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH**



Musabiqe:  
Buxoro davlat universiteti  
Fan va ta'lif MChJ

Bosh muharrir: Ma'murov  
Bahodir Bassulloyevich, Buxoro  
davlat pedagogika instituti rektori

Jameatlichkeit kengashi raisi:  
Xamidov Otabjon Xafizovich,  
Buxoro davlat universiteti rektori

Mas'ul kothi: Akramova  
Gulshor Renatovna

Tezrik muharrir: Davronov  
Imrnoll Ergashevich

Tahririyati manzilli:  
Buxoro shahar,  
Q.Murtazayev ko'chasi, 16-uy

E-mail:  
ejurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:  
[www.interscience.uz](http://www.interscience.uz)

Jurnal OAK Rayonining 2021  
yil 30 sentyabrda 306/5-sun  
Qarori bilan PEDAGOGIKA,

PSYCHOLOGIYA,  
FILOLOGIYA, TARIX  
FANLARI bo'yicha fakul'sta  
doktori (PhD) va fan doktori  
(DSc) ilmiy darsiga  
talabgarlarning dissertatsiya  
ishlari yuzasidan asosiy  
ilmiy natiqlarini chop etish  
tavsiya etilgan ilmiy natiqlar  
ruyxatiga kirilgan

Boshishga ruzasi etilidi:  
10.06.2024 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8.  
b.t.12,5.

Buyurtma raqami №0324  
«FAN VA TA'LIM» nadriyotida  
chop etildi. Buxoro shahar  
<https://interscience.uz/> saytidagi  
joylashtirildi

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305  
raqami bilan O'zbekiston  
Ommaviy aksborot vositalari davlat  
ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va  
2 oyda 1 marta chop etildi.  
2021 yil noyabr oyidan boshlab  
har oyda 1 marta o'zbek, rus va  
inglit tillarida chop etiladi

«Ta'lif va innovatsion  
tadqiqotlari xalqaro ilmiy-  
metodik jurnalidan ko'chirib  
bosish tahririyatining ruqligi bilan  
anliga osishimli

Mazplada keltirilgan faktlarning  
to'g'riligi uchun ossulif  
mess'uldir

<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
Abdiyhamidova S. J., Erdonova F. Sh. Umumiy fizika laboratoriyasida o'quvchilarning bilim olishida virtual tajribalardan foydalanan samaradorligi	5
Abdullahayev S. A. Iqtisodiyotda matrisa va determinantlarning qo'llanilishi	3
Alaudinova D. R. Peculiarities of development of communicative competence in English	14
Amirsaidova Sh., Bozorboyeva N. Maktabgacha yoshdag'i intellektida kamchiligi bo'lgan bolalarning maktabga tayyororganik diagnostikasi	17
Ashurova O. A. Bo'lajak pedagogik otm mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi	20
Avliyakulova N. M. Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda ta'lif vositalari, boshqa fanlar bilan bog'lanishi va nazariy asoslari	24
Azimova D. O., Jo'rayeva N. O. Iqtidorli talabalarini tanlab olish, ularni rag'banlantirish va kasbga yo'naltinish	28
Azimova M. B., Ramazonova G. M. Tasviriy san'atda ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish metodikasi	31
Aslanova A. F. Milliy brendingni ilgari surishda digital pr metodlari	36
Atamuratova M. M. Roziy mezhdunarodnoy akademicheskoy mobilnosti v podgotovke budushix uchitelei	41
Bahronova Sh. I., Davlatova N. U. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kreativligini rivojlantirishning mazmun, mohiyati	44
Boboyeva M. N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik ko'nikmalarini va kreativlik qobiliyatlarini oshirish	48
Boymurodova X. M. Use of digital technologies in teaching foreign languages	51
Davlatova D. S. Biologiya yo'naliishi talabalariga "oliy matematika" bo'limidan ma'rura mashg'ulotlarini tashkil etish	55
Erkinova N. M. Buyuk ipak yo'lining o'rta osiyo shaharlaridan o'tgan tarmoqlari va millatlararo savdo aloqalari wususida	61
Elchiyeva D. T. O'quvchilarda media kompetensiya shakllanishining pedagogik o'ziga xosliklari	65
Farmonov B. D. Methods and modern technologies of teaching language to english students for special purposes	71
Fayziyeva D. H. Bo'lajak pedagoglarning media kompetentligini rivojlantirish istiqbollari	75
G'ofurova A. X. Kasb talim "dizayn" yo'naliishiда ixtisos fanlarni o'qitishda 3d texnologiyasi vositalarining samaraderligini tahlili	81
Hasanov B.N. Kompleks sonlar va ular ustida amallar	85
Hasanova D. B. Algoritmalar ishlab chiqish metodlari va ularning tahlili	94
Ishanova M. M. Sharq allomalari merosi asosida talabalarini o'ilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik - psixologik strategiyalari	97
Jabborova G. S. 9 – sinf algebra darsida o'quvchilarning darnda qiziqishini ottirishda sun'iy intellektidan foydalanim	103
Jamolova Sh. Q., Ravshanova Sh. E. Fizika darslarida talabalarining kasbiy kompetensiyalarini mobil dasturlar orqali shakllantirish metodikasi	109



## TASVIRY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA TA'LIM VOSITALARI, BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LANISHI VA NAZARIY ASOSLARI

Aniyakulova Nafisa Muzafarovna,  
Buxoro davlat universiteti

*Annotation. Ushbu maqolada tasviry san'at fanlarini o'qitishning texnik vositalari bilan o'qitish hamda talabalarini zamondan tashakkut vositalarni qo'llashning pedagogik asoslari, bilmukari bilan qurollantirish va ularni amaliy ish faoliyatida samarali qo'llashga o'rnatish orqali Tasviry san'at fanlarini o'qitishning boshqa fanlar bilan bog'lanishi va nazariy asoslari yorinib berilgan.*

*Kalit so'zlar: tarajjumot, minttossiz, qobiliyatdilik, iste'dod, tabaqalashtirish, ko'regazmalilik.*

## ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ СРЕДСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА, СВЯЗЬ С ДРУГИМИ ПРЕДМЕТАМИ И ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ОСНОВА

Aniyakulova Nafisa Muzafarovna,  
Buxarowskiy gosudarstvennyy universitet

*Annotation. В данной статье объясняется связь преподавания с другими дисциплинами и теоретическими основами преподавания изобразительного искусства с использованием технических средств обучения и оснащения студентов педагогическими основами и знаниями использования современных технических средств и обучения их эффективному использованию их в практической трудовой деятельности.*

*Ключевые слова: развитие, специалист, способности, талант, дифференциация, экспибиционизм.*

## EDUCATIONAL TOOLS FOR TEACHING FINE ARTS, RELATIONSHIP WITH OTHER SUBJECTS AND THEORETICAL FRAMEWORK

Aniyakulova Nafisa Muzafarovna,  
Buxarowskiy universitet

*Annotation. This article explains the connection between teaching and other disciplines and the theoretical foundations of teaching fine arts using technical teaching aids and equipping students with the pedagogical foundations and knowledge of using modern technical means and teaching them to use them effectively in practical work activities.*

*Key words: development, specialist, abilities, talent, differentiation, exhibitionism.*

**Kirish.** Yangi O'zbekistonimiz rivoji, taraqqiy etishi eng ilg'or davlatlar safida bo'lishi uchun, ya'ni bugungi jamiyatimiz oldiga qo'ygan buyuk maqsadlarga ezu niyatlarga erishish, jamiyatimizni yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqbolli amalga oshirilayotgan islohotlar taqdiri ko'p jihatdan zamон talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongi mutasassis kadrlar tayyorlash umummosi bilan chambarchas bog'liq.

Hayotimizning barcha jahbalarida bo'lgani kabi ta'lif va tarbiyada ham ulkan o'zgarishlar yuz benmoqda. 2020 yil 25 dekabr kuni yurrimizda birinchi marta "O'zbekiston yoshlari forumi" tashkil etildi. Forumda yuriboshimizning shaxsan qatmashishi, so'zlagan mutqlarida yoshlarni Vatanimizning eng katta boyligi va bebaho xazinasiga qiyoslagani, pandemiyani o'z boshidan o'tkazayotgan og'ir sinovli kundarda ko'rsatgan mardlikni, jasoratni yuksak e'tirof etganidan dalolatdir. Shuning uchun aynan yoshlarimiz ikki davr-bugun va ertamiz, kelajagimiz vakillari, kelajagimiz yaratuvchilar hisoblanadi. Unib-o'sib kelayotgan yosh avlod xalqimiz, millatimiz davomchilari bo'lish bilan birga Vatanimizning eng katta boyligi va tayanchi, ustunlari ekanini barchamiz yodda tutishimiz lozimdir.

Yurrimiz aholisining 60 foizdan ziyodini tashkil qilayotgan yosh avlodning hayotiy manfaatlarini, ehtiyojlarini ta'minlash, ularning ezu orzu-umidlari, intilishlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir.

2020 yil 23 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan imzolangan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuning 4-moddasiga ko'ra davlatimizda ta'lif sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

ta'lif ustuvorligining tan olinishi;

ta'lif olish shaklini tamlash erkinligi;

ta'limgoh sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi; ta'limgoh olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi; ta'limgoh va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi; ta'limgoh va tarbiyaning insomparvarlik, demokratik xususiyati; ta'limgohning uzuksizligi va izchiligi;

o'n bir yillik ta'limgohning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiyoq o'rta ta'limgoh tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta'limgoh standartlari va davlat ta'limgoh talablari doirasida ta'limgohning hamma uchun ochiqligi;

o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi; insonning butun hayoti davomida ta'limgoh olishi; jamiyatda pedagoglarning ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi; ta'limgoh tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi; bilimlilik, qobiliyatililik va iste'dodning rag'batlantirilishi; ta'limgoh tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;

ta'limgoh faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik. Yuqoridagi qomuning 10-moddasida profesional ta'limgoh tizimi ham yordigan bo'lib, unga ko'ra yurtimizda quyidagi shakillardagi professional ta'limgoh turlari mavjuddir.

Metodlarning o'rganganlik darajasi. O'qitishning texnik vositalari bilan o'rganishdan maqsad talabalarini zamonaviy texnik vositalarni qo'llashning pedagogik asoslari, bilimlari bilan qurollantirish va ulami amaliy ish faoliyatida samarali qo'llashga o'rgatishdir. O'qitishning texnik vositalari mahsus didaktik materiallar (axborot manbalari) va qurilmalar (turli xil a''aratlar va mashinalar) majmuidan iborat bo'lib, o'qitish jarayonida to'g'ri va teskari bog'lanish kanallarini jadal ishlashini ta'minlaydi.

O'qitishning texnik vositalari fanni o'rganish va uni o'quvchilar tomonidan mashg'ulotlarda qo'llash quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- ko'rgazmalilikni o'qitish jarayonida samarali qo'llash;
- uzatiladigan axborotni o'ptimallashtirish;
- o'quvchilarga bilim, o'quv va ko'nikmalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish;
- o'qitish texnik vositalarini asosiy vazifasi – o'qitish jarayonini samara-dorligini oshirishdir.

O'qitishning ta'limgoh vositalarining didaktik asoslari.

Fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi dawrda o'quvchi va o'qituvchining mehnat umumdarligini oshirish, ya'ni o'quv-tarbiya jarayonini jadallashtirish masalasi pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Xarhaqiqat, fan-texnikaning rivojlanishi tufayli o'quvchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan axborot miqdori niyoyatda ko'payib bormoqda. Bu axborotni o'quvchilarga an'anaviy usul va vositalar yordamida yetkazib berish esa murakkablashib bormoqda. Shunga qaramay ko'pgina ilmiy kashfiyot va yangiliklarni ma'hum asbob va apparatlar vositasida yoritib berish ta'limgoh jarayonini ancha osonlashtirishi mumkin.

Bunday sharoitda o'quv muddatini o'zgartirmay o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish, talabalarga puxta va chuqur bilim berish, ularda mustaqil ravishda bilim olish ko'nikmalarini hosil qilish kabi vazifalarini amalga oshirishda ta'limgohning texnik vositalari alohida o'rinni to'radi.

Texnik vositalar bilan jhozlangan mahsus o'quv honalari-avtomatlashtirilgan auditoriyalar, zallar bo'lishi maqsadga muvoqiqdir. Har bir mavzu materiali bo'yicha texnik vositalardan foydalanish metodikasi aniq va puxta ishlab chiqilgan va amalda sinalgan bo'lishi lozim, ularga xos mahsus didaktik materiallar esa uzuksiz ravishda takomillashtirilib borilishi zarur. Insan faoliyatida texnikaning qo'llanilishi, ayniqsa uning o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish maqsadida ishlatalishi o'ziga xos omillarga egadir. Bu omillar birinchidan, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining keskin o'zgarishiga, ikkinchidan, o'quvchiga yetkazilishi kerak bo'lgan voqeя va xodisalarining chuqurreq o'rganilishi va o'zlashtirilishiiga zamin tayyorlashdan iboratdir.

Tadqiqot natijalari. Dars jarayonida o'qituvchining faoliyati asosiy ahamiyatiga ega. O'qituvchi o'quvchiga o'z predmeti bo'yicha umayyan ma'lumotlarni yetkazish bilangina cheklamb qolmay, ulami idrok qilishga, mustaqil ishlashga o'rgatmogni lozim. Ana Shu muammolarni val qilishda texnik vositalar va elektron hisoblash texnikasining roli kattadir.

Didaktikaning barcha prinsiplari texnik vositalardan foydalaniib tashqil qilingan o'quv-tarbiya jarayonida yuqori samara beradi. O'quv jarayonini tashqil etishdag'i barcha pedagogik talablar ana Shu didaktika prinsiplarida o'z ifodasini topadi. Shu principlar asosida texnik vositalardan foydalaniilgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Pedagog-olimmlarning izlanishlari ta'limgohning texnik vositalari va hisoblash texnikasi yordamida didaktikaning quyidagi masalalarini val qilishga erishish mumkinligini ko'rsatdi:

- ta'limgohning ilmiylik va sistemaliligidagi ta'minlash;



- ko'rgazmalilikni oshirish;
- o'quvchilarning bilim olishga ishtiroqini oshirish;
- o'quvchilarning chuqur va mustahkam bilim olishini ta'minlash;
- o'quv materialini o'r ganish va o'zlashtirish sur'atini tezlashtirish;
- ta'limni individuallashtirish;
- bilimlarning o'zlashtirilishini nazorat qilish sistemasini amalga oshirish;
- ma'lumotni uzatish va o'quvchi tomonidan qayta ishlash sur'atini oshirish;
- o'quvchilarning darsga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish;
- o'quvchilarda mustaqil bilim malaka va ko'nkmalarini hosil qilish.

Ko'rgazmalilikning ilmiy asoslari rus olimi I.P. Pavlov tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariya olim tomonidan kiritilgan bиринчи va иккинчи signal sistemalariga asoslangan. Pavlov fikricha hissiyot, qabul qilish va tasavvur etish tuyg'ulari hodisa va predmetlarning tashqi tomonini inoikos etadi. Hodisalarning ichki o'zaro aloqasi esa bilish jarayonining иккинчи pog'onasi bo'lmish tafakkro'r qilish orqali amalga oshadi. Mana Shu xollami e'tiborga ogandagina ta'lim jarayonini muvaffaqiyatlama amalga oshirish mumkin.

Axborotni uzatish va qabul qilishda ishlataladigan texnik vositalar vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsipi, uning odam sezgi organlariga ta'siri, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rasisida «qaytar aloeqani» taminlashi va boshqa hususiyatlariiga ko'ra klassifikasiya qilinadi.

Axborot beruvchi texnik vositalar jumlasiiga tovush texnikasi qurilmalari, turli diaproektorlar, kinoprekto rlar, radio, televedenie, videomagnitofon, videoproigrivettellar xamda o'quv plakatlari, namoyish qilish stendlari, laboratoriya qurilmalari, modellar, maketlar kiradi. Bundan tashqari, o'quvchilarga ma'lum o'quv materiali bo'yicha konsul'tativ ma'lumotlar beradigan qurilmalar xam abborot beruvchi texnik vositalar jumlasiandir.

Barcha nazorat qiluvchi texnik vositalar aniq bir o'quv materiali bo'yicha o'quvchi bilimini tekshirishga mo'ljallangan. Bu apparatlar nazorat qilish va O'z-o'zini nazorat qilish vositalari turliiga bo'limib, tanlash va yozma ravishda javob berish sistemalari asosida ishlaydi. Yordamchi texnik qurilmalarga o'qituvchi va o'quvchi mehnatini yengillashtiruvchi turli mehanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan klavishli hisoblash mashinalari, honami qorong'ilashtirish sistemasi, harakatlanuvchi sinf doskalari, sinf xonalarini telefon vositasida bog'lowchi avtomot qurilmalar kiradi.

Nazariy bilim negizida talabalarda amaliy ko'nkma va malakalarni shakllantirish bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin.

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nkmalarning aniq belgilangan doirasi tushumiladi. Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarini hisobga olish bilan belgilanadi:

1. Ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlar, ijtimoiy tuzumning hususiyatlari.
2. Davlatning valq ta'limi va muiyyyan turdag'i o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad va vazifalar.
3. O'qitish qoidalaridan kelib chikadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Ta'lim jarayoni pedagogik jarayonning ajralmas, munhim qismlaridan biri bo'lib u o'qitish, bilim, ko'nkma va malaka hosil qilish masalalari bilan Shug'ullanadi. Ta'lim nazariyasini "Didaktika" tuShunchasi bilan ham ifodalanaadi. "Didaktika" so'zi grekcha "Didasko" so'zidan olingan bo'lib, "o'qitish, o'rgatish" degan ma'nomi bildiradi. Didaktikaning o'r ganish ob'ekti o'quv jarayoni, o'quv jarayonining rivojlanish qomumiylari, o'qitish tamoyillari, metodlari va shakllaridir. Ta'lim jarayonining asosiy mohiyati tarihan to'plangan ijtimoiy bilim va tajribani yosh avlodga etkazish, avlodlar o'rasisidagi o'zaro bog'liqligini ma'lum tizim orqali amalga oshirish bo'lib hisoblanadi.

Albatta, avloddan-avlodga o'tib borgan sari ijtimoiy tajriba hajmi, demak bilimlar hajmi ham ortib boradi. Fan va teknikaning rivoji ham ilmiy bilimlarning hajmiga va harakteriga ta'sir ko'rsatadi. Bularning hammasi esa o'z navbatida ta'lim tizimida o'z aksini topadi. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish asosi bo'lib hizmat qiladi. Chunki aynan ta'lim tizimi jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy, ilmiy dunyoqarashini shakllanishiha eng asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham barcha tarhiy yuksalish, yangilanish bosqichlarida aynan ta'lim tizimini isloq qilish munhim o'rinn tutgan. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish darajasidan hamda Shu jamiyatning talablaridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

O'quv jarayonida ta'lim oluvchilar va pedagoglar o'rasisida o'ziga hos munosabatlar o'rgatilib bu jarayon ikki tomonning bingalikdagi faoliyati natijasida boradi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni ikki tomonlama harakterga ega deyiladi. Pedagoglar va talabalarning faoliyk darajasi ta'lim jarayonining samarasini belgilaydi. Albatta bu jarayonda pedagog yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. Pedagog aniq maqsadni ko'zlab reja va

dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Talabalar esa ularni faol o'zlashtirib olishlari kerak. Ta'llim jarayonida pedagog o'rnatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o'zlashtirish jarayonini o'z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psihik jarayon bo'lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilalar ishtirotkida boradi. O'qish talabalarning o'zlashtirish, biliish qobiliyatlari, fikrlash operaciyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv tomoshabinlik jarayoni emas, balki talabaga noma'lum bo'lgan haqiqatlarni oshib beradigan faol, ijodiy faoliyat jarayonidir.

Ta'llimning asosiy vazifalaridan biri insomiyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan tehnikaming yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirishdir. Yosh avlodda Shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ulaming keyingi rivoji uchun asos bo'lib hiszmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, ahborotlar hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda ta'llim tizimi talabalarga berishili kerak bo'lgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar hajmimi belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarni echimini topish ustida bosh qotirmoqda.

Xulosalar. Zaruriy bilimlar hajmimi belgilash va shu bilan bir qatorda o'qish muuddatini aniqlash eng muhim masalalardan buri. Ta'llim jarayonida biror fan sohasidagi insomiyat tomonidan erishilgan hamma narsalarni o'rganish kerak deb o'yash mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi. O'quv jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar-fanlarning asoslari o'rganiladi. Ammo Shunga qaramay hozirda o'rganish zarur bo'lgan yangi-yangi fanlarning tarmoqlari (ekologiya, oila psihologiyasi, iqtisod asoslari, ma'naviyat asoslari) vujudga kelmoqdakli ular ta'llim hajmimi bemihoa kengayishiga sabab bo'lmoqda. Biz bu muammolarni ta'llim tamoyillarini (principiarini) buzmagan holda, yosh avlodning sog'ligiga ziyon etkazmagan holda echimini topishga harakat qilmoqdamiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. S.S.Abdullayev,Azimov S.S.,Avezov Sh.N. "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi"- "Durdona"-2020 yil. 75-76 bet.
2. Shomuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'llim samaradorligini oshirish yo'llari. T: Nizomiy nomidagi T D F J , 2004 yil. 12-13 bet.
3. Sobirov T.R, Avliyakulova N.M. "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" darslik- "Kamolot"-2023 yil. 43-45 bet.
4. Avliyakulova N.M. "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi" darslik- "Kamolot"-2022 yil. 66-67 bet.
5. Olimov Q.T, Uzoqova L.P, Alimov A.A, Jo'rayev H, Jalolova D.F, Alimov A.T, Mirzayeva F.T. "Kasb ta'llimi metodikasi" darslik-Toshkent- "Fan va texnologiya"-2016 yil. 78-80 bet.
6. Abdullayev M.T, Hayitov B.X. "Kasbiy ta'llim metodikasi"-Toshkent- "Navro'z"-2017 yil. 113-115 bet.
7. Sayidahmedov S.N, Abduvohidov S. "Kasb ta'llimi o'qituvchisining pedagogik faoliyati modeli" Toshkent-- "Fan va texnologiya"-2017 yil. 95-96 bet
8. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'yasinov O.A. "Mehnat ta'llimi o'qitish metodikasi kasb tanlashga yollash". Farg'onasi- "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat"-2014 yil. 32-35 bet